

“TASDIQLAYMAN”

**O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Atom energiyasi agentligi
direktori**



A.I. Axmedxadjayev

2025-yil “28” noyabr

TASHKILOT STANDARTI

**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atom energiyasi agentligi va tizimdagi tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo‘yicha
Nizom**

1. Umumiy qoidalar

1.1. Mazkur Nizom Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atom energiyasi agentligi (keyingi o‘rinlarda “O‘zatom” agentligi) va tizimidagi tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat yuritishi va korrupsiyaga qarshi tadbirlarni amalga oshirishi to‘g‘risidagi hisobdorlikni shakllantirish tartibini belgilaydi.

1.2. “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat yuritishi va holati masalalari bo‘yicha hisobotlarni (keyingi o‘rinlarda – hisobotlar) shakllantirish va taqdim etish uchun mas’uliyat “O‘zatom” agentligining Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘yicha bosh mutaxassis va tizim tashkilotlari Korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyalari zimmasida bo‘ladi.

“O‘zatom” agentligi tizimidagi tashkilotlarda hisobotni taqdim qilish uchun mas’uliyat Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘yicha bosh mutaxassis va tizim tashkilotlari Korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyalari zimmasida bo‘ladi.

2. Hisobot turlari va uni tuzish davriyligi

2.1. “O‘zatom” agentligida va tizim tashkilotlarida quyidagi hisobot turlari nazarda tutiladi:

“O‘zatom” agentligi Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimining faoliyat ko‘rsatish to‘g‘risidagi, shu jumladan O‘zatom agentligining korrupsiyaga qarshi Dasturi yoki yo‘l xaritasi tadbirlarini amalga oshirilishi bo‘yicha hisobot har chorakda Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘yicha bosh mutaxassis tomonidan (Tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyasi tomonidan) mazkur Nizomning 3-bobida belgilangan tartibda tuziladi;

korrupsiyaga qarshi kurashishga oid davlat dasturida rejalashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish to‘g‘risidagi hisobot har chorakda Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘yicha bosh mutaxassis tomonidan mazkur Nizomning 4-bobida belgilangan tartibda tuziladi;

hisobot muntazam ravishda ushbu Nizomda belgilangan tartibda va muddatlarda, “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holatidan, shuningdek, hisobot davrida korrupsiyaga qarshi tadbirlar o‘tkazilgan yoki yo‘qligidan qat’iy nazar, tuziladi.

yilning IV choragi uchun hisobot tuzilmaydi, uning o‘rniga yillik hisobot tayyorlanadi.

har choraklik va har yillik hisobot “O‘zatom” agentligi direktoriga topshiriladi.

“O‘zatom” agentligining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘yicha bosh mutaxassis har chorakda, keyingi chorak birinchi oyining 25-sanasidan kechiktirmay har choraklik “O‘zatom” agentligining umumiy hisobotini O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga ko‘rib chiqishi uchun kiritib boradi;

“O‘zatom” agentligining yillik hisobotidagi umumiy axborot Internet tarmog‘idagi rasmiy veb-saytida e‘lon qilinadi. Mazkur axborot “O‘zatom” agentligining Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘yicha bosh mutaxassis va Matbuot xizmati tomonidan tayyorlanadi.

3. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risida hisobotni shakllantirish tartibi

3.1. “O‘zatom” agentligi va tizim tashkilotlari korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risidagi hisobot korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini monitoring va nazorat qilish, shuningdek, “O‘zatom” agentligining va tizim

tashkilotlari korrupsiyaga qarshi Dastur yoki Yo'l xaritasi tadbirlarini amalga oshirilishini monitoring qilish maqsadida tuziladi.

3.2. Hisobot har chorakda Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'yicha bosh mutaxassis va tizim tashkilotlari Korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyalari tomonidan hisobot davridan keyingi oyning 20 sanasidan kechiktirmay tuziladi va "O'zatom" agentligi direktoriga ko'rib chiqish uchun topshiriladi.

3.3. Hisobotni shakllantirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

hisobot davridan keyingi oyning 2 sanasidan kechiktirmay, "O'zatom" agentligining Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'yicha bosh mutaxassis bo'lim boshliqlariga va tizim tashkilotlari rahbarlariga ushbu oyning 10 sanasigacha tegishli rahbarlar tomonidan tasdiqlangan mazkur Nizomga A-ilovaga muvofiq hisobot taqdim etishi to'g'risida xabarnoma yuboradi;

"O'zatom" agentligining hisoboti agentlikning Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'yicha bosh mutaxassis va tizim tashkilotlarida Korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyasi tomonidan tuziladi va "O'zatom" agentligi direktor va tizim tashkilotlari rahbarlari tomonidan tasdiqlanadi;

korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati to'g'risidagi hisobotning ma'lum bir tadbirlari o'tkazilmagan taqdirda, tadbirlar amalga oshirilmaganligi sababini ko'rsatish lozim.

hisobotlarga kiritilgan axborot tegishli hujjatlar nusxalari va boshqa ma'lumotlarga asoslangan bo'lishi shart;

"O'zatom" agentligining Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'yicha bosh mutaxassis tizim tashkilotlarida Korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyasi Nizomga V-ilovada ko'rsatilgan shaklda "O'zatom" agentligi va tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tizimning faoliyat ko'rsatishi to'g'risidagi umumiy hisobotni tuzadi hamda unga qo'shimcha ravishda A-ilovadagi shakl bo'yicha "O'zatom" agentligi tizimi bo'yicha tuzilgan hisobotdagi ma'lumotlarni kiritadi.

Hisobotda asosiy axborotni o'zida aks ettirgan qisqacha ma'lumotnoma va takliflar bo'lishi kerak. Yillik hisobot o'z ichiga o'tgan yilning xuddi shunday ko'rsatkichlariga ega bo'lgan solishtirma tahlilni ham qamrab olishi kerak.

3.4. “O‘zatom” agentligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risidagi hisobotlar va “O‘zatom” agentligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risidagi umumiy hisobotni tuzishda Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘yicha mas’ul xodim tegishli bo‘lim va tizimdagi tashkilotlar rahbarlaridan zarur hujjatlar, tushuntirish va statistikani so‘rash va olish huquqiga ega.

3.5. Korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat bo‘yicha bosh mutaxassis qisqa ma’lumotnoma biriktirilgan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risidagi umumiy hisobotini hisobot davridan keyingi oyning 21 sanasigacha “O‘zatom” agentligi direktoriga taqdim etadi.

4. Korrupsiyaga qarshi kurashga oid davlat dasturlarida rejalashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish tartibi

4.1. Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid Davlat dasturida rejalashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish to‘g‘risidagi hisobot ushbu Nizomning S-ilovasiga muvofiq shaklda tuziladi.

4.2. Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid Davlat dasturida rejalashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish to‘g‘risidagi hisobot Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘yicha bosh mutaxassis tomonidan “O‘zatom” agentligi korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risidagi umumiy hisobot bilan bir vaqtda tuziladi.

4.3. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Davlat dasturida rejalashtirilgan tadbirlarning amalga oshirilgani to‘g‘risidagi hisobot “O‘zatom” agentligi direktori tomonidan ko‘rib chiqilgandan keyin Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga yuboriladi.

5. Yakuniy qoidalar

5.1. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va “O‘zatom” agentligining ichki idoraviy hujjatlarga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilgan taqdirda ushbu Nizom qayta ko‘rib chiqilishi lozim.

Nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishga “O‘zatom” agentligining Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘yicha bosh mutaxassisi javobgar bo‘ladi.

Ilova -A
(majburiy)

**“O‘zatom” agentligi korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining
faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risida hisobot**

“O‘zatom” agentligi	
Hisobotni tayyorlagan xodim (Korrupsiyaga qarshi kurashish uchun ma’sullar):	F.I.Sh. lavozimi, tuzilmasi
Hisobot davri:	
Hisobot tayyorlangan sana:	

T/r	Tadbirlar guruhining nomlari	Tadbirlarning nomlari	Bajarish muddati	Ma'sul ijrochilar	Ijro to'g'risida belgi	Ijro etilmagan bo'lsa, ijro etilishi kutilayotgan muddat	Bajarilganlikni tasdiqlash, bajarilmagan bo'lsa sabablari

T/r	Tadbir	Natijalar
II. Siyosatlar va protseduralar		
1.	Ichki hujjatlarni moslashtirish	“O‘zatom” Agentligi hisobot davri uchun moslashtirilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish bo‘yicha choralar yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga oid tartib-taomillarga ega bo‘lgan ichki hujjatlarni (siyosatlar, reglamentlar, standartlar, yo‘riqnomalar va sh.k.) ko‘rsatish zarur.
2.	Xavf-xatarli vazifa va tartib-taomillar kesimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirishga oid yangi korrupsiyaga qarshi tartib-taomillar va choralar hamda korrupsiyaga qarshi masalalarni tartibga soluvchi ichki hujjatlarni ishlab chiqish.	Hisobot davrida ishlab chiqilgan va tasdiqlangan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga kiritilgan sohalarni tartibga soluvchi ichki hujjatlarni (siyosatlar, reglamentlar, standartlar, yo‘riqnomalar va sh.k.) ko‘rsatish zarur.
II. Shaxsiy namuna		

3.	“O‘zatom” agentligi direktori va uning o‘rinbosarlarining ichki tadbirlardagi chiqishlari (nutqi).	3-6-bandlarda “O‘zatom” agentligi tizimi rahbarlari va ularning o‘rinbosarlarining qonunchilik talablariga rioya qilish, korrupsiyaga nisbatan murosasiz bo‘lish, tarkibiy bo‘linmada belgilangan korrupsiyaga qarshi nazorat va tartib-taomillarga amal qilishning muhimligi to‘g‘risidagi pozitsiyasi, fikr mulohazalari ochiq e’tirof etilgan tadbirlarni ko‘rsatish lozim.
4.	Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha ichki kommunikatsiyani tarqatish (“O‘zatom” agentligi direktori va uning o‘rinbosarlarining nomidan).	
5.	“O‘zatom” agentligi direktori va uning o‘rinbosarlarining OAVdagi fikr-mulohazalari.	
III. Xavf-xatarlarni baholash		
6.	“O‘zatom” Agentligi korrupsiyaviy xavf-xatarlar bo‘yicha har yillik baholash o‘tkazish	Ha o‘tkazilgan\yo‘q o‘tkazilmagan (sabablari ko‘rsatiladi) \ jarayonda (qaysi bosqichdagi ko‘rsatiladi)
7.	Hisobot davri uchun “O‘zatom” Agentligi ish jarayonda yangi aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va ularning darajalari (yuqori, o‘rta, past).	Yangi korrupsiyaviy xavf-xatarlar qaysi jarayonlarda aniqlanganligi, ularning darajasi sanab o‘tiladi. Qanday korrupsiyaviy xavf-xatarlar qayta baholandi, yangi daraja, bahoni o‘zgartirish sabablari va korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish bo‘yicha takliflar. “O‘zatom” Agentligining korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi ilova qilinadi.

8.	Hisobot davrida aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni tartibga solish bo'yicha amalga oshirilgan tadbirlar	
9.	Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo'lgan aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlar soni	Qoldiq tavakkal yuqori bo'lgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarning foizdagi nisbati ko'rsatiladi
10.	Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar o'rta va undan past darajagacha kamaytirilgan aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlar soni	Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarlar o'rta va undan past darajagacha kamaytirilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar umumiy soniga foizdagi nisbatini ko'rsatish zarur.
IV. Korrupsiyaga qarshi amalga oshiriladigan tartib-taomillar		
11.	"O'zatom" Agentligi aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi holatlari va qabul qilingan choralar	"O'zatom" Agentligi aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi holatlarining sonini ko'rsatish yoki aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi holatlari reestrini ilova qilish zarur.
12.	Xodimlar tomonidan har yili manfaatlar to'qnashuvini deklaratsiya qilish.	Har yillik manfaatlar to'qnashuvini deklaratsiyalash tartib-taomillaridan o'tgan xodimlarning "O'zatom" Agentligi umumiy xodimlar soniga foizlardagi nisbatini ko'rsatish zarur. Har yili manfaatlar to'qnashuvi deklaratsiyasini amalga oshirishi shart bo'lgan manfaatlar to'qnashuvini deklaratsiyalash tartib-taomillaridan o'tgan xodimlarning "O'zatom" Agentligi umumiy xodimlar soniga foizlardagi nisbatini ko'rsatish zarur.
13.	Ishga olingan xodimlar va nomzodlar ustidan o'tkazilgan tekshiruvlar soni.	"O'zatom" agentligiga ishga qabul qilingan xodimlar sonini va "O'zatom" Agentligi lavozimga nomzodlar

		tekshiruvi sonini ko'rsatish zarur. Tekshiruv o'tkazilmagan bo'lsa sababini ko'rsatish zarur.
14.	Hisobot davrida o'tkazilgan kontragentlar tekshiruvlari soni	Hisobot davrida o'tkazilgan kontragentlar tekshiruvlari sonini, tekshiruvlar natijalari bo'yicha ijobiy va salbiy xulosalarning foizlardagi nisbatini ko'rsatish zarur. Tekshiruv o'tkazilmagan bo'lsa sababini ko'rsatish zarur.
15.	Amalga oshiriladigan boshqa korruptsiyaga qarshi tartib-taomillar	Mavjud bo'lganda ushbu bo'limda ko'rsatilmagan boshqa amalga oshiriladigan korruptsiyaga qarshi tadbirlarni ko'rsatish.
V. Ta'lim va kommunikatsiya		
16.	Korruptsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha treninglar o'tkazish: barcha xodimlar uchun; korruptsiyaviy tavakkallchilikka eng ko'proq moyillik ehtimoli bo'lgan vazifalarni bajaruvchi bo'linmalar uchun.	Treninglar turi va shakli, o'qitilgan xodimlar soni, ularning lavozimlari darajasi va bo'linmalarni ko'rsatish.
17.	"O'zatom" agentligiga yaqinda ishga olingan xodimlar uchun treninglar o'tkazish.	Korruptsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha treninglardan (umumiy, tanishuv) o'tgan yangi xodimlarni umumiy yangi xodimlar soniga foizlardagi nisbati treninglar mavzusi kesimida ko'rsatish.
18.	Xodimlarning korruptsiyaga qarshi qonunchilik talablari va bo'linmada amalga oshirilayotgan korruptsiyaga qarshi choralardan xabardorligini oshirishga oid boshqa tadbirlar	Tadbir ishtirokchilarning maqsadli guruhini, ularni soni (imkoni bo'lsa), mavzusi va turini (masalan, tanlovlar, viktorinalar, so'rovnomalar va b. ko'rsatiladi) va uning yakunlarini ko'rsatish.

19.	Korrupsiyaga qarshi kurash uchun ma'sullar tomonidan bajarilgan korrupsiyaga qarshi kurash me'yorlari mavzusida axborot- tarqatma materiallari.	Korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga amal qilish zaruriyati to'g'risidagi, shu jumladan, ularning to'g'ri talqin qilinishi va ularga to'g'ri amal qilish to'g'risidagi xabarnoma va boshqa tarqatma materiallar.
20.	Xodimlarning ahloq-odob madaniyatini shakllantirish, ularni korrupsiyaga qarshi kurash tizimi va korrupsiyaga qarshi qonunchilikning talablari xaqida xabardor qilishning boshqa usullari.	Masalan, binolardagi axborot plakatlari va boshqa materiallar, skrinshvayterlar, ishchi kompyuterlar ekraniga qo'yiladigan suratlar va boshqalar.
21.	Fuqarolik jamiyati va bo'linma kontragentlari uchun korrupsiyaga qarshi tadbirlarni o'tkazish	Fuqarolik jamiyati vakillari uchun korrupsiyaga qarshi tadbirlarni o'tkazishning soni, nomlanishi, mohiyati va natijalarini ko'rsatish (masalan, korrupsiyaga qarshi kurash kuni, korrupsiyaga qarshi mavzudagi ishlar tanlovi). Shartnomalariga korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlar kiritilgan yangi kontragentlarning yangi kontragentlarning umumiy soniga foizlardagi nisbati.
VI. Korrupsiyaviy xatti-xarakalar va qoidabuzarliklar to'g'risidagi xabarlar. Ta'sir choralari		
22.	Xatti-xarakatlar, shu jumladan, potentsial xatti-xarakatlar uchun aloqa kanallariga kelib tushgan xabarlar soni	Xabarlar sonini quyidagi ma'lumotlarni ham kiritgan holda ko'rsatish: kelib tushgan sanasi kelib tushgan aloqa kanali, xabar mavzusi, tegishli hisobotni ilova qilish.
23.	Xizmat tekshiruvi o'tkazilgan; Korrupsiyaga qarshi qonunchilik buzilganligi to'g'risida tasdiqlangan holatlar (shu jumladan,	Har bir band bo'yicha holatlar sonini ko'rsatish.

	me'yoriy-huquqiy hujjatlar va maqolalar kesimida) aniqlangan; Bo'linmada belgilangan korrupsiyaga qarshi nazorat va tartib-taomillarning buzilish holatlari aniqlangan (shu jumladan, ichki hujjatlar kesimida); Aybdorlar aniqlangan holatlar soni.	
24.	Qabul qilingan ta'sir choralari.	Qanday korrektsiyalash choralari, shu jumladan, intizomiy choralar, ichki nazorat tizimida qanday kamchiliklar aniqlandi va nazoratni kuchaytirish uchun qanday choralar taklif qilindi.
VII. Monitoring va nazorat		
25.	Hisobot davrida mavjud korrupsiyaga qarshi kurashish talablar, nazorat tadbirlari va tartib-taomillar bajarilishi ustidan tekshiruvlar o'tkazilganligi	“O'zatom” Agentligi korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha mas'ullar tomonidan o'tkazilgan tekshiruv tadbirlarini, shu jumladan, ularning sonini quyidagi kesimda ko'rsatish Tekshiruv ob'ektlari (boshqarma, bo'lim); Tekshiruv mavzusi (masalan, xaridlar, kadrlar); Tekshiruv tadbirlari turi (audit, tavakkal tranzaksiyalari monitoringi yoki protseduralari va b.); Tekshiruv tadbirlari xarakteri (rejali, rejadan tashqari).
26.	Bo'linmada belgilangan nazorat tadbirlari va tartib-taomillar buzilish holatlari aniqlanganmi va ularga nisbatan qo'llanilgan ta'sir choralari?	Qaysi tartib-taomil yoki vazifani bajarishda qanday qoidabuzarliklar aniqlangan? Aniqlangan holatlar sonini ko'rsatish.

	Vazifa va tartib-taomillarni bajaruvchi shaxslar uchun qanday tavsiyalar tayyorlangan. Ular qanday rasmiylashtirilgan (masalan, buyruq yoki boshqa ichki hujjatlar)?
--	--

Xulosalar: Tizimdagi tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi choralarni amalga oshirishning asosiy natijalarini ko'rsatish, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi holatiga umumiy baho berish, zaruriyat tug'ilganda avvalgi davrlar ko'rsatkichlari bilan taqqoslama tahlil o'tkazish, qoniqarli natijalarga erishganlik yoki erishmaganlik sabablarini ko'rsatish zarur.

Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar va korrupsiyalovchi tadbirlar rejasi: kelgusi hisobot davrida hisobdorlikning alohida elementlarini yaxshilash imkonini beruvchi asosiy tadbirlarni ko'rsatish zarur.

Ilova - V
(majburiy)

**“O‘zatom” Agentligi korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat
ko‘rsatishi to‘g‘risida 202..yil __chi chorak uchun
UMUMIY HISOBOT**

**I. “O‘zatom” Agentligining korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi
bajarilgani to‘g‘risida umumiy axborot¹**

“O‘zatom” agentligi tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarning amalga oshirilgani to‘g‘risidagi qisqa ma’lumot, shu jumladan “O‘zatom” agentligi va tizimdagi tashkilotlar kesimida korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarini amalga oshirgan tashkilotlar sonini ko‘rsatish zarur;

Tizimdagi tashkilotlar kesimida Korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarni amalga oshirmagan tashkilotlar ko‘rsatiladi, shuningdek, hisobotga ilovada ularning nomi, amalga oshirilmagan tadbirlar va qisqacha-asosiy sabablarini alohida ko‘rsatish lozim.

II. Siyosat va tartib-taomillar

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha sohalarni tartibga soluvchi, va hisobot davrida “O‘zatom” agentligi va tizimdagi tashkilotlar kesimida tatbiq etilgan korrupsiyaga qarshi sohasiga taalluqli bo‘lgan normativ-huquqiy va ichki hujjatlar (siyosatlar, reglamentlar, standartlar, yo‘riqnomalar va shu kabilar)ni ko‘rsatish lozim.

III. Xavf-xatarlarni baholash²

“O‘zatom” agentligi tomonidan xavf-xatarlarni baholash amalga oshirilganligi to‘g‘risidagi axborot, shu jumladan, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashni amalga oshirgan va o‘zlarining korrupsiyaviy xavf-xatarlar matritsasini

¹Ushbu bo‘limda va keyingi o‘rinlarda hisobotning har bir bo‘limi bo‘yicha quyidagilarni ko‘rsatish kerak:

- Birlashgan ko‘rinishda agentlik, tizimdagi tashkilotlar kesimida hisobot davri uchun ma’lumotlar. Agar zaruriyat bo‘lsa, alohida boshqarma va bo‘limlar va ular bo‘yicha ma’lumotlarni ko‘rsatish;
- Zaruriyat tug‘ilganda avvalgi davrlar ko‘rsatkichlari bilan solishtirma tahlil o‘tkazish, qoniqarli natijalarga erishganlik/erishmaganlik sabablarini ko‘rsatish lozim.

² Bo‘lim faqat har yillik hisobot davrida to‘ldiriladi. Mazkur bo‘limda agentlik tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarni baholashni o‘tkazish uslubiyotiga muvofiq amalga oshirilgan xavf-xatarlarni baholash natijalari bo‘yicha tahliliy axborot aks ettiriladi.

yangilagan agentlikning boshqarma va bo'limlari hamda tizimdagi tashkilotlar kesimida ko'rsatish kerak;

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashni amalga oshirmagan tizimdagi tashkilotlar, "O'zatom" agentligi tizimidagi tashkilotlar kesimida ko'rsatiladi, shuningdek hisobotga ilovada ularning nomi va ularning bajarilmaganligi sabablari qisqacha ko'rsatiladi;

Baholash jarayonida yangi aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlar "O'zatom" agentligi va tizimdagi tashkilotlar kesimida ko'rsatiladi. Shuningdek, hisobot davrida aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni boshqarish bo'yicha taklif etilgan va amalga oshirilgan tadbirlar qayd etiladi;

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning toifalar bo'yicha nisbati (yuqori, o'rta, past) tizimdagi tashkilotlar kesimida ko'rsatiladi;

Tizimdagi tashkilotlar kesimida "O'zatom" agentligi uchun yuqori bo'lgan qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarlar, shuningdek, ko'rsatilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish uchun taklif etilayotgan tadbirlarni ko'rsatish lozim (mavjud bo'lgan taqdirda).

IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillar **Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish**

Manfaatlar to'qnashuvi deklaratsiyalangan va tartibga solingan holatlari soni, shu jumladan, ishga qabul qilish, har yillik deklaratsiyalash jarayonida³ (mavjud bo'lgan taqdirda), markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo'linmalar kesimida ko'rsatiladi;

- "O'zatom" agentligi manfaatlar to'qnashuvini agentlik va tizimdagi tashkilotlar kesimida manfaatlar to'qnashuvining yillik deklaratsiyasi tartib-taomillaridan o'tgan xodimlarning umumiy xodimlar soniga foizlardagi nisbati, shuningdek, deklaratsiyalangan va tartibga solingan manfaatlar to'qnashuvi holatlari qayd etiladi;

- "O'zatom" agentligi bo'yicha rejalashtirilgan manfaatlar to'qnashuvining har yillik deklaratsiyalanadigan manfaatlar to'qnashuviga nisbatan ko'rsatkichlari bajarilmagan tizimdagi tashkilotlar kesimida tahliliy ma'lumotlarni keltirish kerak

³ Manfaatlar to'qnashuvini deklaratsiya qilish hisobot davrida bajarilgan bo'lsagina axborot to'ldiriladi.

(masalan, manfaatlar to'qnashuvini barcha rahbarlar deklaratsiyalashi lozim, amalda esa faqat 50% gina rahbar buni bajargan);⁴

-tizimdagi tashkilotlar kesimida "O'zatom" agentligi tizimida aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi va qabul qilingan choralar bo'yicha, shu jumladan, umumiy soni va toifalar kesimida (*masalan, xarid protseduralaridagi, ish bo'yicha bevosita bo'ysunish natijasida va shu kabilarda*) tahliliy ma'lumotlarni keltirish lozim.

Korrupsiyaga qarshi qoidalarni O'zatom" agentligi shartnomalariga kiritish

Korrupsiyaga qarshi qoidalarni "O'zatom" Agentligining xo'jalik shartnomalariga (shartnomalarning foizli nisbati) kiritish bo'yicha, shu jumladan markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo'linmalari kesimidagi kontragentlar tahririda tahliliy ma'lumotlarni keltirish, kontragentlarning korrupsiyaga qarshi qoidalarni shartnomalarga kiritishni rad etish sabablarini ko'rsatish;

Agentlik va tizimdagi tashkilotlar kesimida "O'zatom" agentligi tizimida kontragent tomonidan korrupsiyaga qarshi qoidalar buzilishi sababli shartnomalarni bekor qilish bo'yicha tahliliy ma'lumotlarni ko'rsatish.

Kontragentlarni tekshirish

Hisobot davrida kontragentlar bo'yicha o'tkazilgan tekshiruvlar soni, ijobiy va salbiy xulosalarning foizlardagi nisbati agentlik va tizimdagi tashkilotlar kesimida ko'rsatiladi.

Ishga nomzodlarni tekshirish

Agentlik va tizimdagi tashkilotlar kesimida "O'zatom" agentligi tizimiga ishga kirish uchun nomzodlar ustidan o'tkazilgan tekshiruvlar sonini ko'rsatiladi.

V. Ta'lim va kommunikatsiya

"O'zatom" Agentligi korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha o'qitishning natijalarini agentlik va tizimdagi tashkilotlar kesimida:

o'qitilgan xodimlarning foizdagi nisbati, ta'lim shakli (bevosita va onlayn) ko'rsatiladi;

⁴ Axborot faqat yillik hisobotda to'ldiriladi.

agentlik va tizimdagi tashkilotlar kesimida o'qitish darajasi past bo'lgan korrupsiyaga qarshi ko'nikmalarga oid axborot ko'rsatiladi (rejalashtirilgan ko'rsatkichlarga taqqoslangan holda);

“O‘zatom” Agentligi korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha kommunikatsiya turlari va sonini tizimdagi tashkilotlar kesimida (masalan, tarqatmalar, korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha so'rovnomalar o'tkazish) ko'rsatiladi;

bo'limda shuningdek, “O‘zatom” agentligi tizimida o'tkazilgan keng ko'lamli alohida tadbirlarni ajratib ko'rsatish mumkin.

VI. Korrupsiyaviy xatti-xarakatlar va huquqbuzarliklar to'risidagi xabarlar

Hisobot davrida xodimlarning korrupsiyaviy xatti-xarakatlari, manfaatlar to'qnashuvi, korrupsiyaga qarshi boshqa qonunbuzarliklar bilan bog'liq masalalar to'g'risidagi aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabarlar agentlik va tizimdagi tashkilotlar kesimida ko'rsatiladi;

mansab vazifalari va tartib-taomillar kesimida olingan tahliliy ma'lumotlar (masalan, xaridlar jarayonida, kadrlarni ishga qabul qilish bilan bog'liq tartib-taomillarda) keltiriladi;

olingan xabarlar bo'yicha tahliliy ma'lumotlar qoidabuzarliklar kesimida keltiriladi (masalan, korrupsiyaviy xatti-xarakatlar, manfaatlar to'qnashuvi, kelishuv tartib-taomillarini protseduralarini buzish va boshqalar);

olingan xabarlar bo'yicha tahliliy ma'lumotlar aloqa kanallari kesimida keltiriladi (masalan, ishonch telefoni, bevosita xabar berish va boshqalar).

VII. Monitoring va nazorat⁵

“O‘zatom” agentligi va tizimdagi tashkilotlar kesimida hisobot davrida “O‘zatom” agentligi tizimi tomonidan mavjud korrupsiyaga qarshi talablar, nazorat tadbirlari va tartib-taomillarning bajarilgani to'g'risidagi tahliliy ma'lumotlar keltiriladi, shu jumladan, tekshiruvlar o'tkazilgan “O‘zatom” tizimidagi tashkilotlar soni, shuningdek, tekshiruv o'tkazilgan vazifalar va tartib-taomillarining

⁵ Agentlikda hisobot davrida Korrupsiyaga qarshi protseduralariga rioya qilinishini monitoring va nazorat qilish metodikasiga muvofiq o'tkazilgan tadbirlar yakunlari bo'yicha umumiy tahliliy axborot aks ettiriladi.

davriyligi va xarakteri to'g'risidagi tahliliy ma'lumotlar (rejadagi, rejadan tashqari) ko'rsatiladi;

tizimdagi tashkilotlar kesimida tekshiruvlar o'tkazilmagan tashkilotlar alohida ko'rsatiladi, ilovada ularning nomi hamda tekshiruvlar o'tkazilmaganligining asosiy sabablari qisqacha qayd etiladi;

o'tkazilgan tekshiruvlar natijalari to'g'risidagi umumiy axborot ko'rsatiladi shu jumladan, ijobiy va salbiy xulosalarning foizlardagi nisbati qayd etiladi. Qoidabuzarliklar mavjud bo'lsa, mazkur hisobotning VIII-bo'limga havola beriladi.

VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta'sir choralari

“O‘zatom” agentligi korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi talablarning buzilganligi to'g'risida agentlik va tizimdagi tashkilotlar kesimida tahliliy ma'lumotlarni ko'rsatiladi, shu jumladan:

qoidabuzarliklarning umumiy soni;

qoidabuzarliklarning qoidabuzarliklar to'g'risidagi axborot manbalari bo'yicha tuzilmasi (“ishonch telefoni”, bevosita xabar berish, monitoring va nazorat natijalari va boshqalar);

“O‘zatom” agentligi ichki hujjatlarida nazarda tutilgan vazifalar va tartib-taomillar bo'yicha (xaridlar, kadrlarga oid masalalar va b.) qoidabuzarliklar tuzilmasi;

“O‘zatom” agentligi qabul qilingan ta'sir choralari to'g'risida tahliliy ma'lumotlarni hududiy va tarkibiy bo'linmalari kesimida ko'rsatish, shu jumladan:

o'tkazilgan umumiy tadbirlar soni va aniqlangan barcha qoidabuzarliklar bo'yicha ta'sir choralari ko'rilganligi yoki ko'rilmaganligi;

ta'sir choralari turlari bo'yicha tahliliy ma'lumotlar (aybdorlarni javobgarlikka tortish, shu jumladan, javobgarlik turlari kesimida; “O‘zatom” agentligi tizimi jarayon va ichki hujjatlariga o'zgartishlar kiritish va boshqalar), shu jumladan, zarur bo'lgan holda qoidabuzarlikka yo'l qo'ymaslik bo'yicha qanday tadbirlarni tatbiq etish taklif etilmoqda va hisobot davrida qanday tadbirlar tatbiq etilganligi ko'rsatiladi.

IX. Xulosalar

“O‘zatom” agentligi va tizimdagi tashkilotlar kesimida korrupsiyaga qarshi choralarni amalga oshirishning asosiy natijalari ko‘rsatiladi, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holatiga umumiy baho beriladi. Zaruriyatga ko‘ra avvalgi davrlardagi ko‘rsatkichlar bilan taqqoslama tahlil o‘tkaziladi, qoniqarli natijalarga erishganlik yoki erishmaganlik sabablarini qayd etiladi.

X. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo‘yicha takliflar va tadbirlar rejasi

Keyingi hisobot davrida “O‘zatom” agentligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining alohida ko‘rsatkichlarni agentlik va tizimdagi tashkilotlar kesimida yaxshilash imkonini beruvchi asosiy tadbirlar ko‘rsatiladi.


Ilova- S
(majburiy)

**Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturida rejalashtirilgan
tadbirlarni amalga oshirish to'g'risidagi
Hisobot**

T/r	Tadbirlar nomi	Bajarish muddati	Amalga oshirilgan choralar

Kelishish Varagi

Nomi	Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atom energiyasi agentligi va tizimdagi tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha Nizom
Raqami	

№	Kelishilqan tarkibii tuzilma nomi, rahbari	imzo	Familiyasi I.SH.
1	Direktor o'rinbosari		N. Muksinov
2	Ilm-fan, innovatsiyalar, standartlashtirish va metodologiya bo'limi boshlig'i		I. Gabbarova
	Huquqiy ta'minot va xalqaro aloqalar bo'limi boshlig'i		U. Isanov
3	Kiritildi: Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'yicha bosh mutaxassis		I. Safarov